

KO'RINMAS FALOKAT YOXUD AXBOROT XURUJI

*Termiz davlat pedagogika instituti Tarix fakulteti,
Tarix va uning o'qitish metodikasi yo'nalishi*

1-kurs talabasi

Elmurodov Nodirbek Nurbek o'g'li

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi kunda rivojlanib borayotgan axborot-texnologiyalardan to'g'ri va oqilona foydalanish to'g'isida ta'kidlanadi. Ko'rinmas falokatlar deb atalimish axborot xuruji yoqasiga yaqinlashib borayotgan insonlarni yana bir-bora ogoh bo'lishlari haqida bayon etiladi. Biz qanday qilib axborot xurujlariga yechim topa olamiz va bu yechimlarni real hayotda qanday qilib qo'llay olishimiz haqida batafsil fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *ko'rinmas falokat, axborot, kommunikatsiya, veb-resurslari, milliy kontentni, mentalitet, mafkuraviy poligonlar.*

Assalomu alaykum hurmatli ilm ahli biz siz bilan bugungi kun uchun dolzarb mavzulardan biri bo'lgan "Ko'rinmas falokat yoxud axborot xuruji" haqida so'z yuritamiz .

Biz avvalam bor real voqelikka yuzlanamiz : Falokat so'ziga tarif beradigan bo'lsak, falokat – bu voqea va hodisalarning butun dunyoda ro'y beradigan va katta-kichik ko'rinishda bo'lishidan qat'iy nazar salbiy tomonga o'zgargan axborotdir. Biz ko'pgina falokatlarni guvohi bo'lganmiz . Ammo ularning qanday kelib chiqishi haqida o'ylaganmisiz? Qadrli do'stlar barcha voqealarni sodir bo'lishiga albatta biron-bir sabab bo'ladi. Faraz qiling oddiygina yomg'ir yog'ishi bu bir tabiat qonunidir. Yomg'ir 10-15 daqiqa yog'ib to'xtasa-ku mayli , lekin yomg'ir yog'ishda davom etsa bundan daxshatliroq falokat yo'q .Xo'sh bunga nima sabab bo'ldi, deb o'ylaysiz?...

Shavqatsizlik qilgan tabiatmi yoki tayyorgarlik ko'rmagan insoniyat aybdormi ? Men bu voqea va hodisalarda ikki tomon ham barobar ayibdor deb o'ylayman. Chunki tabiat bulut hosil qilmaganida yomg'ir yog'mas, insoniyat yaxshilab ehtiyot choralarni ko'rganida bunday falokat unchalik talofatli bo'lmas edi. Bunga o'xshash yomg'ir yog'ishi har doimo bo'lgan . Demak biz xatolarimizni faqat bir tomondan qidirishimiz no'to'g'ri ekanligini anglashimiz kerak bo'ladi. Hozirgi kunda sodir bo'layotgan falokatlarni sanab chiqadigan bo'lsak , buning oxiri ko'rinmaydi . Ayni vaqtda insoniyat e'tiborini tortayotgan global ko'rinishdagi falokatlar hozir ham o'z yechimini to'laligicha topmagan . Bunday falokatlarga misol tariqasida "Ozon tuynugi" , "Issiqxona samarasi", kabi falokatlarni keltirib chiqaruvchi muamolarni aytishimiz mumkin .Yuqorida ta'kidlandanidek falokatlarni keltirib chiqaruvchi asil sababini bilish va uni bartaraf etish har bir insoning butun insoniyat va ona tabiat oldidagi burchi hisoblanadi.Ushbu voqeliklarni,ya'ni falokatlarni insoniyat ko'rib turib anglaydi.Agar siz ularni ko'rmasangizchi,qanday bartaraf etasiz ?

Nega aynan ko'rimas falokat jumlasini bizning hayotimizda tez-tez uchrab turadi va lekin biz uni, ko'z o'ngimizda ko'ra olmaymiz. Men aytmoqchimanki inson zoti tug'ilibdiki u hech narsadan xabardor bo'lmaydi. Ammo unda yashashga bo'lgan intilish bo'ladi. Aynan o'sha yashashga bo'lgan intilishi orqali u kelajakdagi hayotida o'z nutqiga, dunyo qarashiga kabi bir qancha tushunchalarda ega bo'ladi. Bu dunyoda har bir millatning o'z qadriyatlari, urf-odatlarini, dinlarini bor lekin ularning maqsadlari bitta tinch-totuv farovon hayot kechirish hisoblanadi. Demak biz hayotimizning har bir daqiqasini qadrlashimiz kerak, chunki atrofimizda minglab ko'rimas falokatlar yashiringan. Hayotimizda belgilangan marralarga erishish uchun ana shunday falokatlar orasidan oyoq uchida sekin-ohistalik bilan o'tib olish har bir inson oldida turgan bir sinovdir.

Uzoq o'tmishga e'tibor beradigan bo'lsak insonlar har doimo o'zlariga to'g'ri fikr va mulohazalar qidirishgan va hozirgi kunda rivojlanib borayotgan axborot –texnologiyalar davrda ham bu jarayon davom etmoqda. Shu o'rinda biz to'g'ri axborotlarni noto'g'ri axborotlardan qanday ajrat olamiz va ko'rimas falokatlarini o'zimizdan qanday qilib yiroqda saqlay olamiz. “Yangi tahdidlar, jumladan,

“ommaviy madaniyat” xavfi va boqimandalik kayfiyati paydo bo'layotgan, odob-axloq qadriyatlarining yo'qolish xavfi yuzaga kelayotgan hozirgi glaballashuv

sharoitida bu g'oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda [1]

Amerikalik muhandis va matematik olim bo'lgan Shennon Klod tomonidan aytilgan fikrga ko'ra “Axborot – bu oydinlashtirilgan mavhumlik hisoblanadi. Biz axborotni qabul qilib yangi bilimlar bilan tanishamiz ilgari mavhum bo'lgan narsalarni anglaymiz” deya aytgan. [2] Mavhumlikni oydinlashtirish esa faqat va faqat sizning o'z qo'lingizda.

Axborot xuruji -deyilganida muayyan kuchlarning o'z siyosiy maqsad va muddaolarini amalga oshirish yo'lida eng avvalo mafkuraviy omillar, shuningdek, moddiy va ma'naviy ta'sir o'tkazish orqali kishilar ongi, qalbiga yot g'oyalarni

singdirishni, ularning hissiyotlari, e'tiqodi, tuyg'ulariga ta'sir etishni, turmush tarzi, mentalitetidagi o'zgarishlarni amalga oshirishni ko'zlovchi xatti-harakatlar majmuasi tushuniladi. Davlatning o'z jamiyati xavfsizligini ta'minlashi vazifasi nuqtai nazaridan olganda, axborot xurujlari axborot xavfsizligini buzish xavfini solgan sharoit va ijtimoiy omillar yig'indisidir. [3] Keyingi yillarda hatto ommaviy axborot sohasida ham terorizm elementlaridan foydalanilmoqda. Muayyan mafkuraviy poligonlar tarqatayotgan axborotlardagi yovuz va zararli g'oyalar oqimi, teleekranlar orqali uzluksiz namoyish etilayotgan jangari filmlar, bolalarga mo'ljallangan, buzg'unchi g'oyalar asosida yaratilgan o'yinlar, kompyuter tarmoqlari dasturlarini ishdan chiqaradigan viruslar tarqatish shular jumlasidandir. O'zining yovuz niyatlariga erishish uchun hokimiyatni qo'lga kiritishni ko'zlaydigan kuchlarning zo'rvonligi va qo'poruvchiligi siyosiy terrorga misol bo'ladi. [4]

Yoshlarni axborot-psixologik xurujlari ta'siriga tushib qolishining ijtimoiy omillari va uni bartaraf etish yo'llari xususida quyidagilarni e'tibor qaratish joiz:

Birinchidan, yoshlarning yuksak ma'naviyatli etib tarbiyalash zarur. Bu borada ta'lim tizimida ma'naviy bilimlarini oshirish bilan kengaytirish kerak. Tarixdan ma'lumki buyuk

allomalarimiz barkamol avlod tarbiyasi xususida o'z asarlarida, she'rlarida, ruboiylari va g'azallarida bayon qilganlar. Binobarin, buyuk ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilmu-ma'rifat, ta'lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan. Qachonki yoshlarimiz yuksak ma'naviyatli, tarbiyali va bilimli bo'lsagina yuksak maqsadga erishiladi.

Ikkinchidan, aholining huquqiy ongi va bu borada axborot kommunikatsiya texnologiyalardan to'g'ri foydalanish madaniyatini oshirish maqsadga muvofiq. Aholi bilan huquqiy targ'ibot kompyuter texnologiyalari va ma'rifat bo'yicha ishlarni amalga oshirishda ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, bosma va elektron ommaviy axborot vositalari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, ushbu ishga fuqarolik jamiyati institutlarini rolini oshirish, ularga imkoniyat va sharoit yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish. Mazkur holatda ommaviy axborot vositalarining barcha tizimlarida elektron ommaviy axborot vositalardan oqilona va samarali foydalanishga doir tushunchalarni muntazam berib borishni yo'lga qo'yish zarur.

Uchinchidan, yoshlar o'rtasida kitob o'qishni keng yo'lga qo'yish; Bu borada milliy va jahon adabiyoti namoyandalarning yetuk asarlarini saralash, tarjima qilish zarur. Hammamizga ma'lum kitoblar - insoniyatning eng yaqin do'sti va maslakdoshi, bebaho merosi hisoblanadi. Uning ma'naviyatimizdagi va jamiyatimizdagi o'rni va ahamiyati nihoyatda katta. Hayotimiz chirog'i, barcha ezguliklarning doyasi, adolat kuychisi bo'lgan kitob o'quvchisini har doim yaxshilikka chorlaydi, ezgu ishlarga da'vat etadi. Shuning uchun ham aholi, xususan, yoshlar o'rtasida kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish ularning yuqoridagi «xurujlar» ga tushib qolishini oldini oladigan muhim vosita hisoblanadi.

To'rtinchidan, internetdan foydalanish madaniyatini oshirish; Bugun kundalik turmushda, ta'lim jarayonida Internet texnologiyalariga katta o'rin ajratilmoqda. Unda foydali maslahatlar, o'qitish dasturlari, qo'llanmalar, elektron kitob va darsliklarning mavjudligi foydalanuvchilarning turli yangiliklardan tez xabar topishi, ilmiy va tadqiqot ishlarini olib borishlarida katta o'rin eganlamoqda. Ammo tarmoqdan foydalanishning ikkinchi tomoni mavjudki, u ham bo'lsa, internet sahifalariga narkotiklar, behayo filmlar, axloqsiz o'yinlar, diniy, irqiy diskriminatsiyani targ'ib qiluvchi materiallar va boshqa salbiy, yot g'oyalardan iborat virtual olamga kirib qolishi tufayli yoshlar o'rtasida o'z joniga qasd qilish, madaniyatimizga zid axloqsiz behayo ishlarga qo'l urilayotgani sir emas. Buning uchun shu kabi yod g'oyalarning salbiy tasirlarini yanada chuqurroq o'rganish va bu borada targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish maqsadga muvofiq.

Beshinchidan, ijtimoiy tarmoqlardan oqilona foydalanishni o'rgatish zarur. Bugungi mamlakatimizda yosh avlod orasida Internet tarmog'i tarqatilishining faol tarzda o'sishi kuzatilayotgandigini e'tiborga oladigan bo'lsak ularni to'g'ri yo'lga yo'naltirish ustuvor vazifalardan biridir. Ammo, mamlakat veb-resurslari aholi talablariga to'liq javob berayotgani yo'q. Shu maqsadda Internet tarmog'ida milliy kontentni rivojlantirish maqsadida ishlarini jadallashtirish, tarmoqda milliy kontentni barpo etishni rag'batlantirish va rivojlantirish muhim choralarni ishlab chiqish zarur.[5]

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Yanada ogoh va sergak bo'lish, eng asosiy boyligimiz bo'lgan va biz haqli ravishda faxrlanadigan ko'p millatli xalqimizning birdamligi va jipsligini ko'z qorachig'idek asrash hamda yanada mustahkamlash O'zbekistonni o'z Vatani, deb biladigan har bir insonning muqaddas burchidir. Biz faqat shu yo'l bilan bugungi kunning barcha tahdid va xavf-xatarlariga samarali qarshi turishimiz, jamiyatimizda turli buzg'unchi g'oyalarga qarshi qat'iy immunitet yaratishimiz, o'zimiz tanlagan demokratik taraqqiyot yo'lida yanada salmoqli natijalarga erishishimiz mumkin".[6]

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, biz hozirgi axborotlar yanayam jadallashib borayotgan davrda to'liq axborotlardan voz kecha olmaymiz sababi ular bilan chambarchas bog'langanmiz. Ko'rimas falokat yoxud axborot xurujida himoyalanişning yagona yo'li bu – me'yordir. Biron –bir muvozanatni saqlash uchun albatta me'yor juda muhimdir .Biz har xil ijtimoiy tarmoqlardan to'liq voz kecha olmasak ularga me'yor o'rnata olamiz. Inson o'z me'yorini saqlay olmas ekan u ko'rimas falokatlar girdobida qolaveradi !.

FOYDALANILGAN ADBIYOTLAR:

1. Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.- T.: " O'zbekiston". 2017.-27 b.
2. Axborot va axborotlashuvning falsafiy asoslari . .45-54.b
3. H.I. Qurbonaliyeva .Axborot xuruji tushunchasi, axborot xurujining manbalari, ularni ijtimoiy muhitda amlga oshirish usullari / Scientific Journal Impact Factor June 2021 750-753.b
4. O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta ta'lim vazirligi Termiz davlat unversiteti "Fuqarolik jamiyati" kafedrası Mavkuraviy jarayonlarning tizimli tahlili fanidan o'quv uslubiy majmua /77.b
5. <https://blog.xabar.uz/post/axborot-hujumi-millat-manaviyatiga-tahdid.html>
6. Shavkat Mirziyoyev . Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz.-T.: " O'zbekiston". 2017.35-38.b